

BOSHLANG'ICH SINIFLARDA MATEMATIKA KURSINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN YANGI NOANANAVIY METODLAR

Nasurleyeva Yulduz Farxadovna

Osiyo xalqaro universiteti

70110501 –Ta'lim va tarbiya nazariyasi va

metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124794>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida foydalanish mumkin bo'lgan yangi noan'anaviy metodlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metod, noan'anaviy metodlar, bahs-munozara, interfaol suhbat, baholash.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodikasi. Kichik guruhlarda ishlash - o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqni yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholash imkoni bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining afzalligi:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- Vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- Barcha o'quvchilar jalb etiladi;
- O'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining kamchiliklari:

- Kuchsiz o'quvchilar bo'lganligi sababli, kuchli o'quvchilarning past baho olish ehtimoli bor;
- Barcha o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- Guruhlararo o'zaro salbiy oqibatlar paydo bo'lishi mumkin;
- Guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

«Bahs-munozara» metodi - o'quvchilarni ikki guruhga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda, ushbu metod qo'llaniladi. Bahs -munozarani boshqarib borish vazifasini o'quvchilarning biriga topshirish mumkin. bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir o'quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs-munozara metodining afzalliklari:

- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- O'quvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga intiladilar;
- O'quvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Bahs-munozara metodining kamchiliklari:

- O'qituvchidan boshqarish mahoratini talab etadi;
- O'quvchilar bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash kerak.

Noananaviy metodlar.

Charxpalak. Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya shaxsiy tarkibni o'tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida mashg'ulot o'tuvchi tomonidan shaxsiy tarkibning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: shaxsiy tarkibni mashg'ulot jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: texnologiya mashg'ulotlarning barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni shaxsiy tarkib tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda mashg'ulot o'tuvchi qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh tinglovchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- shaxsiy tarkibni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi;
- shaxsiy tarkibni mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh, a'zolariga tarqatiladi;
- mashg'ulot o'tuvchi belgilagan vaqt ichida tarqatma materiallardagi vazifalar guruh a'zolari tomonidan yakka tartibda mustaqil ravishda bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir ramziy belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;
- boshqa guruh, a'zolarining yakka tartibda bajarilgan vazifalar varaqalari yakka tartibda yangi guruh a'zolari tomonidan o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamolalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana 10 yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);
- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan ramziy belgilari asosida) tanlab oladilar;

➤ har bir guruh a'zolarining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining to'zatishtirishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar; • mashg'ulot o'tuvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi yoki (sharoitga qarab) tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, ekran orqali to'g'ri javoblar o'qib eshittiriladi;

➤ har bir tinglovchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'zlarini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda tinglovchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan mashg'ulot o'tuvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 0,55 foizdan yuqori bo'lsa, tinglovchi ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lib, javoblarning 17-20 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa, tinglovchi ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa o'zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 21-24 tasi to'g'ri belgilangan bo'lsa tinglovchining materiallarni o'zlashtirganlik darajasi "yaxshi", 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa "a'lo" baho deb hisoblanadi.

• tinglovchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, mashg'ulot o'tuvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

"Charxpalak"¹ texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun shaxsiy tarkibga quyidagicha vazifa berish mumkin.

Interfaol suhbat

Interfaol suhbat - og'zaki bayon qilish interfaol uslubi bo'lib, tinglovchilar tomonidan bilimlarni astasekin o'zaro fikrlashib o'zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o'ylangan savollar tizimidir. Takrorlash, mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo'llaniladi. Bu suhbatda mashg'ulot o'tuvchining (yoki tinglovchilarning) bitta savoliga tinglovchilar aniq to'g'ri javob berishlari kerak.

Interfaol uslubning maqsadi: mashg'ulot o'tuvchining mohirlik bilan qo'ygan savollari yordamida hamda tinglovchilarning tirishqoqligi va mustaqil fikrlashlari tufayli ularni yangi bilimlarni jadal o'zlashtirishlariga erishish, tinglovchilarning bilimlarni tushunganlik va o'zlashtirganliklarini nazorat qilish, xotira va tafakkurini rivojlantirish, o'qilayotgan, o'rganilayotgan matn (yoki tomosha qilinayotgan rasmni, eksperiment va ekskursiya natijalari)ning asl ma'nosi, mazmuni tinglovchilar hamkorligida tushuntirish va izohlash, hamkorlikda ishlash, o'zaro hurmat, mas'uliyatni his etishni tarbiyalash.

Kutiladigan natija: mashg'ulot o'tuvchining bitta savoliga bitta aniq to'g'ri javob berish hamda o'rganilayotgan materialni to'g'ri tushunish va baho berish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

➤ mashg'ulot o'tuvchi guruhni mashg'ulot mavzusi hamda uni o'tkazish tartibi talablari bilan tanishtiradi;

➤ mashg'ulot o'tuvchi mavzuni tinglovchilarga tushuntirish (mustahkamlash yo takrorlash, baholash) uchun mavzu mazmunini bir necha kichik bo'limlarga bo'ladi va shu asosda kichik guruhlar tashkil etadi (guruhlar soni mavzunining bo'lingan bo'limlariga bog'liq);

¹ N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent. "O'qituvchi" -1996 yil.

- mashg'ulot o'tuvchi guruhlariga (avvaldan tayyorlab qo'yilgan) kichik mavzu bo'limlarini tarqatadi (kichik mavzu bo'limlar yozilgan tarqatma materiallarni guruhlar o'zlari tanlab olishlari yoki ushbu bo'limlar ekranda namoyish etilsa, 28 ekrandagi materiallardan birini tanlab olishlari mumkin va h.k.);
 - mashg'ulot o'tuvchi guruhlar tomonidan tanlab olingan mavzu bo'limlari ustida bosh qotirishlari, tarqatma materiallar asosida uni guruh bo'lib o'ylab ko'rishlari, agar muammo bo'lsa, uning yechimini birgalikda topishlari, o'z fikrlarini tarqatilgan qog'ozlarga yozma bayon etishlari kerakligini tushuntiradi;
 - guruhlar berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishadilar, mashg'ulot o'tuvchi vaqt belgilaydi;
 - guruhlar ishlarini tugatgach, guruh vakillaridan biri tayyorlangan materialni taqdimot qiladi;
- Izoh: mashg'ulot o'tuvchi guruh, a'zolari tomonidan aytilgan javoblar, fikrlarga o'z munosabatini bildirib boradi, kerak joylarda ma'qullab, ba'zilariga qo'shimchalar qiladi, to'g'rilaydi;
- mashg'ulot o'tuvchi yoki uning assistenti guruh a'zolarining javoblari va aytgan fikrlarini hisoblab boradi, umumiysini doskada, flipchart qog'ozda, ekranda belgilab boradi;
 - barcha guruhlar o'z fikrlarini bildirib bo'lishgach, mashg'ulot o'tuvchi fikrlarni umumlashtiradi va asosiy mavzuga qo'shimchalar kiritib, to'ldiradi;
 - guruhlar tomonidan doskada (flipchart, ekranda) aytilgan fikrlar, javoblar soniga qarab, eng ko'p fikr bildirgan, ko'p javob bergan guruhlar aniqlanadi, mashg'ulot o'tuvchi o'zi belgilagan mezonlar asosida ularni baholaydi, masalan guruhda 10 ta fikr bildirilgan bo'lsa - 5 baho, 8 ta - 4 baho, 6 ta - 3 baho, 5 dan kam bo'lsa - "qoniqarsiz", deya baholanadi. Izoh: bu baholar guruhga beriladi, lekin guruhning har bir a'zosi shu bahoga ega bo'ladi.
 - mashg'ulot o'tuvchi tinglovchilar baholarini e'lon qilgach, o'tilgan mavzuga yakun yasaydi va keyingi mashg'ulotning mavzusi, vaqti, o'tkaziladigan joyi, o'tish tartibi bilan barchani tanishtiradi.

References:

1. Qosimov.F.M. "Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi" (monografiya). T.: "Fan va texnologiya", 2011.
2. Jumayev.M.E. "Matematika o'qitish metodikasi". T.: "Turon-Iqbol", 2016.
3. Jumayev.M.E. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum". T.: "O'qituvchi" 2004.